ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

№12
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 140 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –“Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***



Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari ....26
Xuseynova Abira Amanovna

Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication....31
Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna

Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash....35
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna

Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari ....40
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojialiyeva Sarvinoz Elyorjon qizi

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...44
Asatova Dildora Aslamovna

Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli....49
Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna

Insultdan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi ....52
Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna

The Concept of Symbols in Linguoculturology ....56
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi

Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi....59
Mirxalilova Nargiza Akbarovna

Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish ....63
Mitaliboyeva Dildora

Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish ....66
Nartayeva Shahnoza Yulchibayevna

Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari....71
Normatova Nilufar Komilovna

Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda)....76
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya

Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish ....80
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model....83
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi

"Sab'ai sayyor" asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar ....87
Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi

Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri....91
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna

Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish....95
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li

Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish ....99
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli ....102
Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi

Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ....106
Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo

Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog‘liqliklar tahlili ....109
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich

Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg‘ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari ....112
Yarashev Jo‘rabek To‘rayevich

Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки ....117
Габдульманова Ильнура Минисламовна

Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов ....119
Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи

Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования....124
Уразова М. Б., Усманова У. Б.

Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе “школа–махалля” в Узбекистане ..130
Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли

Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи....135
Юсупова Зулайхо Бахром кизи



# INSULTDAN KEYINGI NUTQNI TIKLASHDA LOGOPEDIK REABILITATSIYA VA NEVROLOGIK MUOLAJALAR INTEGRATSIYASI

Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna
Namangan Abu Ali Ibn Sino jamoat salomatligi texnikumida
“Klinik fanlar o‘qituvchisi, Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti,
Namangan filiali magistri

Ilmiy rahbar: Nilufar Abidova
Dsc. professor

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada insultdan keyin kuzatiladigan nutq buzilishlari – afaziya, dizartriya va dispraksiyaning etiologik omillari, klinik ko‘rinishlari hamda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasining ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot neyroplastiklik, erta aralashuv, multimodal terapiya va tibbiy-pedagogik yondashuvlarning uyg‘unlashuvi orqali bemorlarda nutq funksiyalarining qayta tiklanish dinamikasini yoritadi. Shuningdek, dori-darmon terapiyasi, fizioterapiya, kognitiv mashqlar, artikulyatsion hamda sensorimotor stimulyatsiya tizimlarining kompleks qo‘llanilishi insultdan keyingi reabilitatsiya samaradorligini oshirishdagi o‘rni asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** insult, afaziya, dizartriya, neyroreabilitatsiya, logopedik davo, neyroplastiklik, multimodal terapiya, kognitiv stimulyatsiya, nutqni tiklash, klinik-logopedik integratsiya.

**Abstract:** This article examines the etiological factors and clinical manifestations of post-stroke speech disorders, including aphasia, dysarthria and dyspraxia, as well as the significance of integrating speech-language rehabilitation with neurological interventions. The study highlights the role of neuroplasticity, early intervention, multimodal therapy and the harmonization of medical and speech-language approaches in enhancing the recovery dynamics of speech functions. Additionally, the paper substantiates the effectiveness of combining pharmacotherapy, physiotherapy, cognitive training, articulatory techniques and sensorimotor stimulation within a comprehensive post-stroke rehabilitation framework.

**Key words:** stroke, aphasia, dysarthria, neurorehabilitation, speech-language therapy, neuroplasticity, multimodal therapy, cognitive stimulation, speech recovery, clinical-speech integration.

**Аннотация:** В статье рассматриваются причины возникновения речевых нарушений после инсульта – афазии, дизартрии и диспраксии, их клинические проявления, а также значимость интеграции логопедической реабилитации и неврологических методов лечения. В исследовании анализируются механизмы нейропластичности, роль раннего вмешательства, мультимодальной терапии и согласованного применения медицинских и логопедических подходов в восстановлении речевых функций пациентов. Кроме того, обосновывается эффективность комплексного применения медикаментозной терапии, физиотерапии, когнитивных упражнений, артикуляционной и сенсомоторной стимуляции в процессе постинсультной реабилитации.

**Ключевые слова:** инсульт, афазия, дизартрия, нейрореабилитация, логопедическая терапия, нейропластичность, мультимодальная терапия, когнитивная стимуляция, восстановление речи, клинико-логопедическая интеграция.

## KIRISH

Insult – markaziy nerv tizimining o‘tkir qon-tomir patologiyasi bo‘lib, u miya to‘qimalarining ishemik yoki gemorragik zararlanishi natijasida yuzaga keladi va bemorlarning 70–80 foizida turli darajadagi nutq buzilishlariga sabab bo‘ladi. Ushbu holat ko‘pincha afaziya, dizartriya, dispraksiya yoki aralash nutq buzilishlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Nutq funksiyasining yo‘qolishi bemorning ijtimoiy hayoti, psixologik holati va kognitiv faoliyatiga jiddiy ta’sir qiladi. Shuning uchun insultdan keyingi davrda nutqni tiklash – klinik reabilitatsiya tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. [1–32]

So‘nggi yillarda tibbiyot va logopediyaning integratsiyalashgan yondashuvi insultdan keyingi reabilitatsiya jarayonida samaradorlikni sezilarli darajada oshirayotgani aniqlangan. Nevrologik muolajalar, fizioterapiya, farmakoterapiya, logopedik mashqlar, neyrostimulyatsiya va kognitiv terapiya o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanganda bemorlarda neyroplastiklik jarayonlari faollashadi va tiklanish dinamikasi tezlashadi. Ushbu

maqolada insultdan keyin nutqni qayta tiklash jarayonida logopedik va nevrologik muolajalar integratsiyasining nazariy asoslari, klinik ahamiyati va amaliy yondashuvlari ilmiy jihatdan yoritiladi. [2–46]

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutqni boshqaruvchi markazlarning shikastlanishi va insultdan keyingi afaziya mexanizmlarini o'rgangan tadqiqotchilar orasida N. G. Artemyeva muhim o'rin tutadi. U o'z ishlarida afaziya shakllarining klinik-differensial belgilarini, Broka va Vernike markazlarining funksional o'zaro bog'liqligini hamda reabilitatsiyada logopedik korreksiyaning zarur komponentlarini asoslab bergan. E. D. Xomskayaning neyropsixologik yondashuvi esa insultdan keyin yuzaga keladigan nutq, diqqat, xotira va kognitiv jarayonlar buzilishlarining chuqur neyrobiologik asoslarini tushuntirib, reabilitatsiya dasturlarini individual tuzishda muhim ilmiy poydevor yaratadi. Ushbu mahalliy va rus olimlarining ishlari logopedik va nevrologik muolajalarni birgalikda olib borish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Zamonaviy xalqaro adabiyotlarda ham integrativ yondashuvning afzalligi keng yoritilgan. Brookshire tomonidan chop etilgan neurogenik nutq buzilishlari haqidagi tadqiqotlar insultdan keyingi afaziya va dizartriyaning neyrogen asoslarini chuqur tahlil qilib, logopedik mashg'ulotlarni nevrologik muolajalar bilan uyg'unlashtirish tiklanish sur'atini oshirishini ko'rsatadi. Papathanasiou va Coppens tomonidan olib borilgan tadqiqotlar multimodal terapiyaning – ya'ni sensor, motor va kognitiv komponentlarning birgalikdagi ta'sirining – nutqning qayta shakllanishida yuqori samaradorlik berishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Berthier tomonidan insult epidemiologiyasi va afaziya patogeneziga oid izlanuvlar esa farmakoterapiya va neyrostimulyatsiya jarayonlarining logopedik reabilitatsiya bilan parallel olib borilganda kuchli sinergiya berishini ko'rsatadi.

Kognitiv tiklanish, neyroplastiklik va neyronlarning qayta tashkil topish jarayonlari Kolb va Whishaw tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ular insultdan keyingi nutqni tiklashda muntazam takroriy mashqlar va sensor-motor stimulatsiyaning o'rnini yuqori baholagan. Kurland va Liu tomonidan neyroplastiklik bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarda esa multimodal reabilitatsiya neyronlararo aloqalarni kuchaytirib, nutq markazlarining funksional qayta tiklanishiga yordam berishi qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan tasdiqlangan insultdan keyingi reabilitatsiya bo'yicha klinik protokollar esa amaliyotda logopedik va nevrologik yondashuvlarning integratsiyasini davlat miqyosida standartlashtirgan bo'lib, samarali tiklanishning tizimli asoslarini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzuda ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishning klinik hamda logopedik yondashuvlariga tayangan holda tashkil etildi. Ma'lumotlar insultdan keyingi bemorlarning nutq holatini baholash orqali, standartlashtirilgan testlar – A. R. Luriya metodikasi, Boston afaziya testi, Token-test, artikulyatsion apparatni tekshirish protokollari va kognitiv baholash usullari yordamida olindi. Shuningdek, logopedik mashg'ulotlar samaradorligi kuzatuv va takroriy diagnostika orqali qayd etildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, klinik kuzatuv, descriptiv tahlil va simptomatik yondashuv asosida qayta ishlanib, logopedik va nevrologik muolajalar integratsiyasining nutq tiklanish dinamikasiga ta'siri ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Insult – miya qon aylanishining o'tkir buzilishi natijasida yuzaga keladigan patologik holat bo'lib, u miyaning turli sohalarining ishemik yoki hemorragik shikastlanishi bilan kechadi. Nutq jarayonining buzilishi ko'pincha chap yarim sharning Broka, Vernike, arcuate fasciculus va boshqa nutq bilan bog'liq neyron tuzilmalarining zararlanishi oqibatida yuzaga keladi.

Nutq buzilishining klinik shakllari quyidagilardan iborat:

- motor afaziya – Broka markazi shikastlanganda nutqning motor dasturi buziladi, bemor gapirmoqchi bo'ladi, lekin artikulyatsiya dasturi shakllanmaydi;
- sensor afaziya – Vernike markazi shikastlanganda bemor nutqni eshitadi, ammo mazmunini tushuna olmaydi;
- amnestik afaziya – predmet va hodisalarning nomini eslash qiyinlashadi;
- aferent va efferent motor afaziya – artikulyatsion pozitsiyalar almashinuvi buziladi.

Shu bilan birga, insultdan keyingi bemorlarda disfaziya, dizartriya, apraksiya, kognitiv buzilishlar, diqqat yetishmovchiligi va psixogen omillar ham nutq tiklanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Neyropsixologik baholash natijalari reabilitatsiya dasturini to'g'ri tanlashda muhim ahamiyatga ega. [3–56]

Insultdan keyingi logopedik yordam kompleks, tizimli va individual yondashuv asosida olib boriladi. Logopedik reabilitatsiya quyidagi bosqichlardan iborat: diagnostik bosqich – bu bosqichda bemorning nutqi (fonetika, leksika, grammatika, semantika), artikulyatsion apparati holati, nafas, ovoz, prosodika, xotira, diqqat va kognitiv faoliyati kabi koʻrsatkichlar baholanadi. Tegishli testlar (A.R. Luriya testi, Boston diagnostik testi, Token-test va boshqalar) qoʻllanadi. [4–62]

Logopedik korreksiyaning asosiy yoʻnalishlari:

- artikulyatsion gimnastika – falaj yoki parez tufayli sustlashgan mushaklarni faollashtirish, maxsus mashqlar orqali lab, til, yumshoq tanglay faoliyatini tiklash;
- sensor nutqni faollashtirish – eshitib tushunish, semantik tahlil, fonematik persepsiyani tiklash, audio-matnlar, rasmli koʻrsatmalar, fonemlarni farqlash mashqlari orqali;
- motor nutqni rivojlantirish – oddiy fonemlardan boshlab soʻz, birikma va gap darajasiga oʻtish, ritmik nutq mashqlari, avtomatlashgan qatorlar va dialoglardan foydalanish;
- leksik-grammatik tizimni shakllantirish – soʻz tanlash, antonim–sinonimlar, predmet–harakat bogʻlanishlarini tiklash, kengaytirilgan gap tuzish mashqlari;
- yozma va oʻqish malakasini tiklash – aleksiya va agrafiya holatlarida oʻqish bosqichlarini qayta oʻrgatish, harflarni differensial idrok etish, boʻgʻinlab oʻqish mashqlarini bajarish.

Insultdan keyingi davolash jarayonida nevrologik muolajalar logopedik reabilitatsiya bilan birgalikda qoʻllanganda samaradorlik sezilarli oshadi. Ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- dori-darmon terapiyasi – nootroplar (piratsetam, fenotropil) neyronlararo aloqalarni faollashtiradi;
- nevroprotektorlar – miyani qayta shikastlanishdan himoya qiladi;
- antikoagulyantlar – qayta insult xavfini kamaytiradi;
- Vitamin B guruhi – neyron regeneratsiyasini qoʻllab-quvvatlaydi.

Dori vositalari logopedik mashgʻulotlarni samaraliroq qiladi, chunki nutq uchun zarur boʻlgan neyronlar faoliyati barqarorlashadi. [5–74]

Fizioterapevtik muolajalar: transkranial magnit stimulyatsiya, elektroforez, neyromuskulyar stimulatsiya, refleksoterapiya. Bu muolajalar artikulyatsiya apparati mushaklarida tonusni tiklashga, nerv signallarining tezlashishiga yordam beradi. Insultdan soʻng kognitiv jarayonlar zararlanishi bemorning nutq tiklanishini sekinlashtiradi. Shu sababli diqqat, xotira, tafakkur va ixtiyoriy harakatlanish jarayonlari ham maxsus treninglar bilan tiklanadi. [6–48]

Logopedik va nevrologik reabilitatsiya integratsiyasining afzalliklari quyidagicha namoyon boʻladi: reabilitatsiya jarayoni tizimli va ilmiy asoslangan boʻladi, nutq tiklanish tezligi oshadi, bemorning psixoemotsional holati barqarorlashadi, nevrologik muolajalar logopedik mashgʻulotlar uchun optimal fiziologik fond yaratadi, nutq markazlarining plastiklik xususiyatlari faollashadi, qaytalanma insult yoki regressiya ehtimoli kamayadi. Shuningdek, integratsiya zamonaviy multimodal yondashuvning asosiy talabidir, chunki nutq faqat logopedik jarayon emas, balki neyrobiologik, fiziologik va psixologik jarayonlar uygʻunligida tiklanadi. [7–26]

Bugungi kunda logopedik va nevrologik reabilitatsiyada bir qator innovatsion texnologiyalar keng qoʻllanmoqda:

- virtual reabilitatsiya (VR texnologiya) – nutqni faol holatda mashq qildirish uchun;
- kompyuter dasturlari (Aphasia Therapy, SpeechEasy, Logosoft);
- robototexnik logopedik trenerlar; biofeedback tizimi – artikulyatsion a'zolar faoliyatini vizual nazorat qilish;
- transkranial toʻgʻri tok stimulatsiyasi (tDCS).

Innovatsion texnologiyalar nutqning qayta shakllanishini tezlashtiradi va mashgʻulotlarni qiziqarli qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Insultdan keyingi nutqni tiklash jarayoni tibbiy jihatdan murakkab, koʻp omilli va tizimli yondashuvni talab etadi. Logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi bemorlarning tiklanish dinamikasini sezilarli ravishda yaxshilaydi, neyroplastiklik jarayonlarini faollashtiradi, nutq faoliyatining strukturaviy va funksional qayta tiklanishini tezlashtiradi. Klinik va logopedik yondashuvlarning uygʻunlashgan holda qoʻllanishi afaziya, dizartriya va boshqa nutq buzilishlarini bartaraf etishda eng samarali strategiya hisoblanadi. Shuningdek, erta reabilitatsiya, individual dasturlar, multimodal mashqlar va tibbiy–pedagogik monitoring reabilitatsiya jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Артемьева Н. Г. Клиническая логопедия: Афазия. – Москва: Академия, 2020.
2. Хомская Е. Д. Нейропсихология. – Москва: АСТ, 2019.
3. Brookshire R. Introduction to Neurogenic Communication Disorders. – Mosby, 2019.
4. Papathanasiou I., Coppens P. Aphasia and Related Neurogenic Communication Disorders. – Jones & Bartlett Learning, 2021.
5. Berthier M. L. Poststroke Aphasia: Epidemiology and Treatment. Neurology, 2020.
6. Cherney L. Multimodal Treatment Approaches for Aphasia Recovery. Journal of Speech, Language and Hearing Research, 2018.
7. Kolb B., Whishaw I. Q. Fundamentals of Human Neuropsychology. – Worth Publishers, 2020.
8. Kurland J., Liu A. Neuroplasticity in Aphasia Rehabilitation. NeuroRehabilitation, 2018.
9. Freedman M., Kaplan E. Neurobehavioral Disorders After Stroke. – Springer, 2017.
10. O‘zbekiston Respublikasi SSV. Insultdan keyingi reabilitatsiya protokollari. – Toshkent, 2023.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.